Xalqaro integratsiyalashuv amaliyoti natijasida xorij davlatlarining banki tizimi bo'yicha konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotlarini shakllantirish jarayonida ichki audit xizmatining roli va ularda amaliyotining ta'siri va auditorlik risklarini hisoblash metodikasining ta'sir doirasini hisoblash jarayonidagi muammolarni yechimini topish uchun xalqaro talablarga mos ravishda moliyaviy hisobotlarni tuzish va ularni ichki audit tomonidan rejalashtirish masalasini yechimini topish muhim hisoblanadi. Bank tizimida ichik audit risklarini aniqlash va ularni baholash, shu asosda risklarni minimallashtirish, risklarni baholashda xalqaro audit standartlaridan foydalananish bo'yicha ilg'or chet el tajribalaridan O'zbekiston bank tizimida foydalanish natijasida tijorat banklarini ichki auditini samarali tashkil qilish imkoniyati yaratiladi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonida muhim masala tijorat banklaridagi ichki audit xizmatini to'g'ri tashkil etish va ular tomonidan bankning raqobatbardoshligini aniqlash imkoniyati yaratiladi. O'zbekiston Respublikasida tijorat bank tizimi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ayniqsa auditning xalqaro standartlarini bank amaliyotiga joriy qilinishi ularning faoliyati va moliyaviy hisobotlarining shaffofligini yanada oshiradi va



chet elliq hamkorlar bilan teng sharoitda hamkorlik qilish imkoniyati yaratiladi va natijada tijorat banklarining shaffofligi, ko'rsatkichlarining umum foydalaniladigan shaklda tayyorlanishiga imkoniyat yaratiladi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston Respublikasi bank tizimi, shu jumladan, xizmat ko'rsatish sifati xalqaro talablarga mos ravishda amalga oshirilishiga va moliya institutlarida xalqaro standartlarga mos ravishda yuritilishi bank-moliya tizimining yanada rivojlanishga imkoniyat yaratadi. "O'zbekiston Respublikasi moliya-bank tizimida uzoqni ko'zlab olib borilgan islohotlar natijasida, moliyaviy barqarorlikka erishildi.

Bu boroda statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, tashqi omillarning O'zbekiston Respublikasi moliya-bank tizimi barqarorligiga salbiy ta'sirlarining oldini olish borasidagi chora-tadbirlar doirasida tijorat banklari kaptalining yetariligidagi katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimiz moliya-bank tizimi barqaror va ishonchli faoliyat yuritib, yuqori ko'rsatkichlarga erishmoqda. 2012-yilda bank tizimining jami kapitali 24,3 foizga, so'nggi uch yilda esa ikki barobarga ko'paydi"¹, degan edi. Lekin bunday keyin ham O'zbekiston Respublikasida yana bank tizimi rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda. Bunda bank tizimining bunday rivojlanishiga ichki audit va auditning xalqaro standartlarini amaliyatga joriy etilishi natijasida bank sohasidagi ko'rsatkichlarning shaffofligi yanad oshganligini ko'rshimiz mumkin.

Shunday qilib, tijorat banklarining faoliyatida ichki audit xizmati faoliyatida auditning xalqaro standartlarini joriy etish tajribasini amaliyatda qo'llash asosida O'zbekiston tijorat banklari faoliyati bo'yicha amaliy tadqiqotlar natijasida tijorat banklarida ko'rsatkichlarning shaffofligi yanada oshdi va ularda bir qator amaliy jihatdan afzallik paydo bo'ldi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirda jahon tajribasidan foydalangan holda sifat jihatidan riskka yo'naltirilgan audit tizimini tashkil etishda asosiy masala ularni umum qabul qilingan tamoyillar asosida tashkil etish muhim hisoblanadi. Ayniqsa tijorat banklarining faoliyatini doimiy ravishda nazorat qilish amaliyatini bajaradigan ichki audit masalasiga alohida e'tibor qaratilishi va uni faoliyatini operativ ravishda zamonaviy nazorat tizimi asosida nazorat qilish bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirishlishi xalqaro talablarga mos kelishi uchun xalqaro moliya institutlari tomonidan tashkil qilinadigan nazorat tizimiga mos kelishi kerak. Bunday umumiyo ko'rsatkichlarni ko'rib chiqish jarayonida asosiy o'rinni auditning xalqaro standartlari egallaydi. Shu sababli O'zbekiston tijorat banklarida buxgalteriya hisobini nazoratini tashkil qilinishi xalqaro talablarga javob beradigan tarzda olib borish uchun banklarda ichki audit tizimi auditning xalqaro standartlari asosida tashkil qilinishi lozim. Chunki bank nazorat tizimini xalqaro amaliyatda qabul qilingan ichki nazorat shakliga mos holda amalga oshirish, ularni nazoratini xalqaro amaliyatga mos ravishda yuritish imkoniyatini yaratilishida auditning xalqaro standartlari muhim ahamiyatga egadir.

Ushbu masalada O'zbekiston Respublikasidagi bank tizimida tashkil qilingan ichki audit tizimini xalqaro audit standartlari talablariga muvofiq tashkil etish va yuritish, shuningdek, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda yuritilayotgan ichki nazorat va audit tizimi uchun zarur bo'lgan eng asosiy tamoyillarini respublikamiz tijorat banklarida joriy etish muhim hisoblanadi.

Bank operatsiyalarini tekshirish. MDHda, jumladan, Rossiya amaliyatida tijorat banklarida ichki audit vazifalari va auditni o'tkazish haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan². Audit tekshiruvini o'tkazishga kirishayotgan vaqtda, birinchi navbatda, bank balansining haqqoniyligiga ishonch hosil qilish kerak. Buning uchun tekshiruvchilar (ichki auditorlar) analitik ma'lumotlarini sintetik ma'lumotlar bilan solishtirib chiqilishi va buxgalteriya amaliyotlarining tegishli schyotlarda aks ettirilishining to'g'riliqiga ishonch hosil qilish lozim.

Keyingi tekshiruvlarni quyidagi tartibda o'tkazish tavsiya etilgan:

1. Kassa taftishi.
2. Ustav fondining to'g'ri shakllanganligini tekshirish.
3. Vakillik hisob varaqlarining holati.
4. Kredit operatsiyalarining tekshirushi.
5. Bank daromad va xarajatlarining tahlili.
6. Soliqlarning to'g'ri va o'z vaqtida to'langanligini tekshirish. Bulardan tashqari, bankning rivojlanishi va operatsiyalar ko'laming oshishi natijasida bankning boshqa sohalarini tekshirish zaruriyati tug'ilishi mumkin.

Mamlakatimiz iqtisodchi-olimlari³ bosh bank yoki filiallar faoliyatini audit tekshiruvdan o'tkazilganda, quyidagi masalalarni yoritib berishi lozim deb biladilar:

- 1) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi va Markaziy bankning me'yoriy hujjalariiga rioya qilinishi;

1 <https://president.uz/uz/lists/view/2228>

2 Потфель делового человека. "Банковский портфель-3". –М.: "Соминтек". 1995 год. 565–570 стр.

3 Тижорат банклари ташки аудитда халқаро молиявий хисобот стандартларини жорий этиш методологияси. А.В. Вахабов, А.К. Ибрагимов, Н.К. Ризаев. –Т. Молия, 2011. Монография. –1886. Б. 148–149.



- 2) Bosh bank yoki filialning iqtisodiy-me'yoriy ko'rsatkichlarini, mablag'larning yetarliligi, likvidliligin, aktivlar sifatini;
- 3) kreditorlar va omonatchilar oldidagi o'z majburiyatlarini bajara olayotganini;
- 4) banklarning depozit, kredit, pul muomalasi, hisob-kitob, kassa, valyuta va boshqa operatsiyalari bo'yicha o'tkazilgan amallarning to'g'ri va asoslanganligi;
- 5) ichki nazorat ahvolini, to'g'ri tuzilib, tegishli joylarga taqdim etilayotganini;
- 6) xodimlarning ijro intizomini;
- 7) filial rahbarlarining bank ishining qay tarzda tashkil qilinganini hamda bank daromadlarini oshirish va xarajatlarni kamaytirish borasida olib borayotgan ishlarni aniqlashdan iboratdir.

Fikrimizcha, ichki audit xizmati tomonidan bank filiallarida tekshiruvlarni quyidagi tartibda amalga oshirish mumkin.

Bunda asosiy e'tibor tijorat banki faoliyatini tekshirish, shu jumladan, tijorat banki emissiya-kassa opreas-iyalarini audit qilishga qaratilishi lozim. Chunki ko'pchilik xatoliklar ushbu sohada bo'lishi mumkin va bank pul mablag'larining saqlanishi muhim masala hisoblanadi. Ichki auditorlar ishni rejalashtirish uchun bank balansini tahlil qilishlari lozim, shu asosda bankning qaysi sohalariga e'tibor berish lozimligini aniqlaydilar.

Auditorlik tekshiruvning auditni tashkil etish usuli va audit o'tkazish usullari mavjud. Auditni tashkil etish usuli deb, quyidagilarni aytib o'tishimiz mumkin: to'liq audit, tanlanma tekshirish, aralash tekshirish, joriy (to'satdan) tekshirish.

Buxgalteriya hisobi va bank ichki nazoratini auditdan o'tkazishda tekshirilayotgan Bosh bank yoki filialda buxgalteriya hisobini yuritish va nazorat ishlari qay darajada tashkil etilganiga ahamiyat berilishi kerak.

Auditorlik tekshiruvlari uchun muhim masala audit jarayonida tanlash hisoblanadi. Ushbu masalada iqtisodchi-olim U.O.Saxobov tomonidan ilmiy izlanishlarida auditorlik faoliyatida muhim hisoblangan auditorlik tanlovnii chuqur o'rganib, auditorlik tanlov mohiyatining zarurligi, uning kelib chiqishi hamda asosiy muammolarini yoritib berdi. "Auditorlik tanlovi" bu – hisob schetlardagi qoldiqlar va schetlar bo'yicha oborotlar haqqoniyligi, hamda ichki nazorat tizimining ishonchlilagini aniqlash uchun jami elementlarni 100% dan kamroq tekshirish jarayoni hisoblanadi. Bundan tashqari, auditorlik tekshiruv va tanlov turlari, tanloving hisob-kitob riski metodikasi, bank kredit portfelini hisoblash metodikasi batafsil tahlil qilingan. Kredit faoliyatining bank auditini o'tkazishda tanlov jarayonini avtomatlashtirish uchun "Audit sampling" dasturiy ta'minoti yaratildi. Bu esa, o'z navbatida⁴, audit xizmati tekshiruv jarayonining tezkor va aniq ma'lumotlari hamda auditorlik isbot-dalillarini olish imkoniyatini beradi.

Iqtisodchi-olim N.Karimov tomonidan tijorat banking barqarorligini baholashda auditning tutgan o'rni tahlil qilingan⁵ va tijorat banklaridagi ichki audit tizimi faoliyati xorijiy amaliyot va halqaro tajribadan kelib chiqqan holda xalqaro ichki audit standartlaridan foydalanish kerakligi asoslab berilgan.

Demak, tijorat banki faoliyatini ichki audit tomonidan tekshirish jarayonida tegishlib bo'limmalar faoliyatiga asosiy e'tibor qaratilishi kerak. Ushbu yuqorida masalalar tijorat banki ichki auditining vazifasi hisoblanadi. Sababi, hisob, moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlari jahon iqtisodiyotida hamda mahalliy iqtisodiyotda yagona hisob va audit tilini yaratishga, qolaversa, iqtisodiyotda va amaliyotda ham ular o'z izchilligi va ishonchliligi bilan foydalanishga qulay bo'lishiga ishonish hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot va audit xulosalaridan foydalanuvchilar tarafidan, umum ishlab chiqilgan standartlar to'g'risida ko'p yillar har xil tortishuvlar oqibatida, xalqaro audit standartlari, bir qancha murakkab xatoliklardan holi bo'ldi. Hozirda ham, jahoning ko'pgina mamlakatlarida xalqaro audit standartlarining talablariga muvofiq ravishda, milliy auditorlik standartlarini amaliyotga tatbiq qilishda, bunday ilmiy tortishuvlar davom etmoqda.

Masalan: tashqi auditda AXS № 520-“Tahliliy amallar” nomli standartdan foydalanishiga to'xtalib o'tishimiz mumkin.

Tashqi auditni tashkil qilishda asosiy masalalardan biri audit o'tkazish jarayonida tahliliy amallardan keng foydalaniladi va uning 4 ta vazifasi mavjud deb hisoblash mumkin.

Bular:

- 1) mijozning biznesi bilan tanishuv;
- 2) muassasaning faoliyat ko'rsatuvchanlik qobiliyatini baholash;
- 3) moliyaviy hisobotda xatolarning mavjud bo'lishi mumkinligi ehtimolini baholash;
- 4) detallashgan auditorlik testlarining sonini qisqartirish va hokazolar⁶.

Ushbu tahliliy amallar, aynan audit o'tkazishning rejalashtirish bosqichida bajarilishi diqqatga sazovordir. Chunki, bunda faqat ushbu tahliliy amallar orqaligina keyingi ishga ma'lum bir anqliklar kiritish mumkin bo'ladi. Tahliliy amallarning samaradorligi ma'lum omillarga bog'liq. Masalan, ularga vaqt bo'yicha tanlash, maqsadni

⁴ Сахобов У.О. Аудиторская выборка. – Т.: “Иқтисод-молия.” 2006. С.13–14.

⁵ Каримов Н.Ф.. “Тижорат банкларида ички аудит”. – Т.: “Фан”. 2006.

⁶ Аренс Э.А., Лоббек Дж.К. Аудит. Пер. с англ. М.А.Терехова и др. –М.: “Финансы и статистика,” 1995. – С. 205.



aniqlash, testni loyihalash, mijoz haqidagi ma'lumotlarni tarmoq bo'yicha taqqoslash, mijozning joriy va o'tgan davrlardagi ma'lumotlarini taqqoslash, mijoz ma'lumotlarini aniq mijoz haqidagi kutilayotgan natijalar bilan taqqoslash, mijoz ma'lumotlarini aniq auditor tomonidan kutilayotgan natijalar bilan taqqoslash va hokazolar. Ayrim amallar oldin ta'kidlaganimizdek, rejalashtirish davrida amalga oshiriladi. Ya'ni, auditor auditning maqsadi, oldinda turgan ish hajmi va muddatini aniqlashi juda muhim. Rejalashtirish vaqtida sodir etilgan amallar auditorga muhim vaziyatlarga oydinlik kiritishda yordam bersa, sal keyinroq, ya'ni audit jarayonida bajarilgan amallar tekshiruvda asosiy diqqatni talab qiladi.

Umumiy standartlarni guruhlanishi	
1.	Audit o'tkazuvchi shaxsnинг maxsus tayyorgarlik va auditorlik kasbiy sifatiga talablar
2.	Auditor tomonidan topshiriqni bajarish uchun savolnomaga va testlarni tuzishi va ulardan foydalanishiga qo'yilgan talablar
3.	Tekshiruv o'tkazish va auditorlik xulosa berish jarayonida kasbiy salohiyati bo'yicha talablar

1-rasm: Audit umumiy standartlarining guruhlanishi

Quyida (GAAS) Umum qabul qilingan audit standartlari to'g'risida to'xtalamiz. Ushbu standartlar quydagicha guruhlangan:

- Umumiy standartlar.
- Ishchi standartlar.
- Xulosa standartlari.

Birinchi guruhdagagi standartlarni quydagi tartibda 3 ta guruhga ajratishimiz mumkin. Ushbu standartlar auditorlik faoliyatini tashkil qilish, shu jumladan, auditni rejalashtirishdan boshlab, u bo'yicha auditorlik xulosalarni tuzishgacha bo'lgan davrni va bosqichlarni o'z ichiga olib, auditorga qo'yilgan kasbiy va etik talablarga ham alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, auditor tomonidan topshiriqni bajarish uchun savolnomaga va testlarni tuzishi hamda ulardan foydalanishiga qo'yilgan talablar, auditni rejalashtirish, tahliliy amallarni bajarish bilan bog'liq masalalarni ochib berishga qaratilgan.

Ikkinchi guruhga esa ishchi standartlarning vazifasi va uning mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Demak, tijorat banklarining ichki auditida ishchi standartlar ishni puxta rejalashtirish va yordamchilar mavjud bo'lsa, ular ustidan to'la nazorat o'rnatish maqsadida, tekshirish hajmini belgilash, vaqt chegaralarini aniqlash va audit rejasini tuzish jarayonida ichki auditor tomonidan tijorat bankida tashkil qilingan ichki nazorat tizimi o'rganiladi.

Shu jumladan, ushbu standartlarning quydagicha guruhlanishi belgilangan.

1.	Audit ishini rejalashtirish va dasturini tuzish, auditor yordamchilari bajaradigan ishlarni nazorat tizimini tashkil qilish
2.	Audit tekshiruvi hajmini belgilash, sarflanadigan vaqtini aniqlash, ichki nazorat tizimini o'rganish
3.	Audit qilinayotgan tijorat banki filiali bo'yicha auditorlik xulosasini berish uchun tekshirish, kuzatish, so'roqlar o'tkazish, auditorlik dalillarini to'plash
4.	Auditorlik xulosasi va auditorlik hisobotlarini shakllantirish va unga ilovalarni biriktirish.

2-rasm: Audit ishchi standartlarining guruhlanishi

Ushbu bank auditining ishchi standartlari auditorlik faoliyatining boshlanishi bo'lgan audit ishini rejalashtirish jarayonidan boshlanadi. Birinchi bosqichda auditorlik tekshiruvlarini dastlabki rejalashtirish va dasturini tuzish, dan boshlanadi. Keyingi amalga oshiriladigan ishlarga audit dasturi asosida ish hajmini taqsimlash, ma'sul shaxslarni belgilash, auditor va auditor yordamchilari bajaradigan ishlarni nazorat tizimini tashkil qilish ishlarni rejalashtiriladi. Ikkinchi bosqichda audit tekshiruvini hajmini aniqlash, sarflanadigan vaqt, ya'ni auditor va yordamchi auditorlarning ish vaqtleri rejalashtiriladi. Bu bosqichda yana bir muhim masala ichki nazorat tizimini o'rganilib, bajariladigan ish hajmi bo'yicha kuzatishlar amalga oshiriladi. Keyingi bosqichda audit qilinayotgan tijorat banki filiali bo'yicha auditorlik xulosasini berish uchun rejalashtirish, ish hajmini aniqlash, tekshirish, kuzatish, so'roqlar o'tkazish, auditorlik dalillarini to'plash ishlari amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda auditorlik tekshiruvi yakunlanib auditorlik hisoboti va xulosasi shakllantiriladi.

Tijorat banklarining ichki auditida ishchi standartlar ishni puxta rejalashtirish va yordamchilar mavjud bo'lsa, ular ustidan to'la nazorat o'rnatish maqsadida, tekshirish hajmini belgilash, vaqt chegaralarini aniqlash va audit rejasini tuzish jarayonida ichki auditor tomonidan tijorat bankida tashkil qilingan ichki nazorat tizimi o'rganiladi.

Ichki auditda muhim masala auditorlik tekshiruvi natijasi bo'yicha tegishli auditorlik hisoboti va xulosalarini tayyorlash hisoblanadi. Ushbu auditning xulosa standartlari tashqi audit nutai nazaridan quydagi qismlardan iborat bo'ldi: Auditorlik hisoboti, auditorlik xulosasi, rahbariyatga xat.



Tijorat banklarida auditorlik xulosalar standartini ko'rib chiqishdan oldin xaqaro standartda belgilangan auditning xulosa standartlarini ko'rib chiqishimiz lozim.

Ushbu standartlar asosan auditorlik tekshiruvlarining asosiy yakuniy natijasini aks ettirish uchun foydalanildi. Shu jumladan, auditorlik xulosasining shakllari, ularning chetga chiqishlari, audit natijalarini bayon qilish masalalarini o'z ichiga oladi. Shu sababli ushu xulosa standartlari auditorlik tekshiruvlarining asosini tashkil qiladi va audit tekshiruvlarining yakunida tekshirish natijalarini baholash uchun xizmat qiladi.

Bosqichlar	Asosiy bajariladigan ishlar
1.	Auditorlik xulosasida umumiy qabul qilingan buxgalteriya tamoyillari asosida tuzilganligi
2.	Auditorlik xulosasida chetga chiqishlarni aniqlanishi va ularni tuzatish masalasi ko'rsatiladi
3.	Audit natijasi bo'yicha tekshirilayotgan bank faoliyati bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha xatoliklar bo'masa, topilgan xatoliklar muhim bo'lmasa, ijobjiy xulosa berilishi ko'zda tutiladi

3-rasm: Audit xulosa standartlarining guruhanishi

Ushbu xulosa standartlarida moliyaviy hisobot umum qabul qilingan buxgalteriya tamoyillari asosida tuzilganligi to'g'risidagi ma'lumot berilishi, auditorlik xulosasida bu tamoyillardan chetga chiqish sharoitlari belgilanishi va tartibi aniqlanishi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola doirasida amalga oshirilgan tadqiqot ishini o'tkazishda tijorat banklaridan olingan ma'lumotlarni xalqaro standartlar bilan ko'satkichlarini solishtirish, taqqoslash, induksiya, deduksiya, pozitivizm, eksperimentlar va so'rovnomalari, natijalarni tanlanmadan populyasiyaga qarab umumlashtirish, svod tahlili va boshqa usullardan foydalanildi. Banklarda moliyaviy hisobotlarini audit qilish jarayonini shakkantirish, ayniqsa konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotini tuzish jarayonida foydalilanadigan turli shakldagi hisobot shakllari, ularni auditida auditning xalqaro standartlaridan foydalilanilgan va ularning natijasida moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablarga moslab taqdim qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Tijorat banklarida ichki auditni boshqarish va uning natijalarini tahlil qilishda tegishli auditorlik hisobotlari taqdim qilishi lozim. Bunda xato va kamchiliklar hamda ularning oqibati natijasida bank faoliyatiga ta'siri o'rganiladi. Bundan tashqari, ichki auditning maqsadida ichki auditor ma'lumotlarni kompyuter dasturi yordamida qayta ishlashi masalasi muhim hisoblanadi. Ichki audit tomonidan tekshirish amalga oshirilganda bir qator afzallikkлага ega bo'ladi. Bularidan eng asosiyları sifatida quydagilarni keltirish mumkin:

- tekshirish uchun ketadigan vaqt keskin kamayadi.
- qayta ishlaniib olingan ma'lumotlarning ishonchliligi ortadi.
- ma'lumotlarni qayta ishlash natijasida olingan hujjatlarning sifati yuqori bo'ladi.
- auditorning ma'lumotlar bilan ishlashi qulaylashadi.

Buning natijasida auditorlik tekshiruvda qatnashayotgan mutaxassislarning e'tiborini yana ham muhimroq bo'lgan ishlarga qaratilib, moliyaviy hisobotni to'liqroq tahlil qilish, bankdagi hisob va ichki nazorat tizimi to'g'risida rahbariyatga batafsilroq ma'lumot berish uchun sharoit yaratiladi. KATlardan foydalangan holda olinadigan ma'lumotlar o'zining tezkorligi, to'liqligi va ko'p variantliligi bilan ajralib turgani uchun auditorga u yoki bu iqtisodiy hodisa to'g'risida aniqroq fikr bildirish va uni baholash imkonini beradi. Shuning uchun ham auditor o'z faoliyatida kompyuterlarning o'rnnini to'g'ri belgilay olish va uni mukammal o'rganishga harakat qilishi lozim.

Ichki bank auditi tomonidan amalga oshiriladigan tekshiruvlarning auditning xalqaro standartlari asosida o'tkazilishida auditorlik risklari quydagi tartibda baholandi.

Kaitalbank ATB tomonidan moliyaviy hisobotlarni ko'satkichlari quydagi tartibda baholangan:

1-jadval: "Kapital bank" ATB moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotining auditorlik riskini baholanishida audit amallariining tahlili (ming so'm hisobida)

Nº	Hisobotning moddalari	Moddadagi summalar	Muhimlilik darajasi	Auditorlik riski darajasi	Risk summasi
1.	Pul mablag'lari va ularning elementlari	145427,4	78,5	21,5	31233,9
2.	Asosiy vositalar	427367,4	86,4	13,6	58121,9



3.	Kredit qo'yilmalari	1458367,5	90,5	9,5	138544,9
4.	Mijozlarning talab qilib olingacha bo'lgan schyotlardagi qoldiqlari	6982475,6	94,7	5,3	734288,0
5.	Taqsimlanmagan foyda	452365,4	78,5	21,5	97258,5

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, tijorat bankining aktividagi moddalarni risk darajasi auditor tomonidan risk darajasini belgillash tartibiga bog'liq bo'lib, muhimllilik darajasini yuqori qo'yilishi riskni kamaytiradi. Lekin ushbu daraja 100 foizga teng bo'lgan holda ham auditorlik risklari mavjud bo'ladi. Chunki ular albatta, auditor tekshiruvi va uning amallarini bajarilishi jarayonida sodir bo'ladi va unda auditorning bilim darajasi, auditorlik amallar va boshqa risklar ta'sirida xatoliklar sodir bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari ichki auditni amalga oshirishda auditning xalqaro standartlarini qo'llash va uni tadbiq etishda tegishli tashkliy ishlarni bajarish, moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda xalqaro audit standartlari asosida auditorlik amallarini bajarish lozim va bunda fikrimizcha quyidagilarni ta'kidlab o'tish kerak:

- 1) ichki audit tizimiga xalqaro audit standartlarini joriy qilish natijasida banklarning ichki auditini amalga oshirish metodikasi asosida ichki auditni rejalahtirish, audit metodologiyasi asosida risklarni baholash bo'yicha takliflar berish;
- 2) xalqaro audit standartlarini bank ichki auditni amaliyatiga joriy qilish orqali uning usullari va texnikasi, bank buxgalteriya hisobidagi ishchi schyotlar rejasи, hisob registrlari, hujjatlar aylanishini komp'yuter tizimida tegishli dastur asosida nazorat qilish metodikasini ishlab chiqish;
- 3) xalqaro audit standartlar asosida ichki audit uslubiyotini ishlab chiqish va ichki audit xodimlari faoliyatini rejalahtirish, auditor va auditor yordamchilari o'rtasida xizmat vazifalarini taqsimlash, ichki audit rejasи va dasturini ishlab chiqish, bosh auditorni huquq va majburiyatlarini belgilash.
- 4) banklarda qabul qilingan hisob tizimini ichki audit tomonidan nazorat qilish usullarini belgilash, bankning faoliyati bo'yicha tahliliy amallarini bajarilish.

Adabiyotlar / Literatura / Reference:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori 2020-yil 24-fevraldag'i PQ-4611-son, <http://lex.uz/docs/3107040>
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Senati va Qonunchilik palatasiga murojaatnomasi. 2020-yil 25yanvar/. –Toshkent: "O'zbekiston", 2020 – 30 b.
3. Anthony, Robert Newton. Accounting principles /Robert N. Anthony, James S. Reece, D.B.A. – 7th edition, Irwin, 2006. 686 p.
4. Ainsworth, Penne. Introduction to Accounting: An integrated Approach /Penne Ainsworth, Dan Deines, R. David Plumlee, Cathy Xanthaky Larson. Irwin, Printed in USA, 2005. 425 p.
5. Libby, Robert. Financial accounting /Robert Libby, Patricia A. Libby, Daniel G. Short. Irwin, Printed in USA, 1996.325p.,
6. Barry Elliott., Jamie Elliot, Financial Accounting and Reporting London 1993 625p.F.Wood Business Accounting. London Pitman. 1989.–353 p.
7. Аликсенов А.С. Международные стандарты финансовый отчетности. –М.: Издательство Юрайт, 2018.-404с.
8. Агеева О.А. Международные стандарты финансовой отчетности. Учебник для вузов. / О.А. Агеева, А.Л. Ребизова. –М.: Юрайт, 2013. – 447.
9. Ибрагимов А.К., Марпатов М.Д..Ризаев Н.Қ. Халқаро молиявий хисобот стандартлари асосида банкларда бухгалтерия хисоби. Ўқув қўлланма. –Т.:Молия, 2010. –2726. Б.64-65.
10. Дусмуратов Р.Д., Тулаев У.И. Молиявий хисобот: назарий, услубий ва амалий жиҳатлари. –Т.: "Extremum-Press", 2012, -144 б.
11. Ибрагимов А.К., Умарова З.А., Хотамов К.Р., Ризаев Н.К. – "Тижорат банкларида молиявий хисоботнинг халқаро стандартлари" ўқув қўлланма. – Т. : "IQTISOD – MOLIYA" нашри, 2019-241 б.
12. Ибрагимов А.К, Очилов И, Ризаев Н. "Молиявий ва бошқарув хисоби".–Т.: "Иқтисод-молия". –2009. –367 б.
13. Тижорат банклари ташки аудитда халқаро молиявий хисобот стандартларини жорий этиш методологияси. А.В. Вахабов, А.К. Ибрагимов, Н.К Ризаев. –Т. Молия, 2011. –Монография. –188 б.



Yashi

IQTISODIYOT
Va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodi materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027
Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o’tkazilgan.